

Nafosat SHAKAROVA,
ISFT (International School of Finance Technology and Science)
universiteti psixologiya fani o'qituvchisi
Tel :+998948870611
E-mail:shakarovanafosat@gmail.com

PhD G.Z.Ziyavitdinova taqrizi asosida:

PSYCHOLOGICAL ASPECT OF VOLITIONAL QUALITIES IN ADOLESCENCE

Annotation

In this article, will and volitional qualities are counted from factors that determine the development of the individual, the degree of formation of volitional qualities in adolescence of the development of development is the main stage in the maturation of the individual. Therefore, it is important to analyze the criteria for the formation of volitional qualities and justify its importance in the development of personality. In adolescents who are coming of age today, individual psychological characteristics are the formation of such important volitional qualities as responsibility, initiative, discipline, diligence, boldness, perseverance, courage, striving for a goal, the development of methods for eliminating negative volitional qualities that occur in the mental-psychological process, determines that the topic is relevant in the current period.

Keywords: will, psychological component, talent, perseverance, self-control, Abulia, apraxia, genetics, psychological concepts.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается, что воля и волевые качества являются определяющими факторами развития личности, уровень формирования волевых качеств В подростковом возрасте развития является ключевым этапом в созревании личности. Поэтому важно проанализировать критерии формирования волевых качеств и обособовать их значение в развитии личности. Индивидуально-психологические особенности у подростков, достигших совершеннолетия сегодня, определяют формирование таких важных волевых качеств, как ответственность, инициатива, дисциплинированность, усидчивость, смелость, решительность, целеустремленность, выработка способов преодоления негативных волевых качеств, возникающих в психопсихологическом процессе, актуальность темы в настоящее время

Ключевые слова: Воля, психологическая составляющая, талант, упорство, самоконтроль, абулия, апраксия, генетика, психологические понятия.

O'SMIRLIK DAVRIDA IRODAVIY SIFATLARNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada iroda va irodaviy sifatlar shaxs taraqqiyotini belgilovchi omillardan biri sanalishi, rivojlanish taraqqiyotining o'smirlik davrida irodaviy sifatlarning shakllanganlik darajasi shaxsning kamolotga yetishishidagi asosiy bosqich hisoblanadi. Shu bois irodaviy sifatlarni shakllanish mezonlarini tahlil qilish va uning shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini asoslab berish muhimdir. Bugungi kunda voyaga yetayotgan o'smirlarda individual psixologik xususiyatlar ma'suliyat, tashabbuskorlik, intizomlilik, tirishqoqlik, dadillik, qat'iyatlilik, jasoratlilik, maqsadga intilish kabi muhim irodaviy sifatlarni shakllantirish, ruhiy-psixologik jarayonda yuzaga keladigan salbiy irodaviy sifatlarni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish, mavzuning hozirgi davrda dolzarb ekanligini belgilaydi.

Kalit so'zlar: Iroda, psixologik komponent, iste'dod, matonatli, o'zini tuta bilish, abuliya, apraksiya, genetika, psixologik tushunchalar.

Kirish. Taraqqiyotning har bir davri uchun shaxs kamoloti alohida ahamiyat kasb etgan, uning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan irodaviy sifatlar, ularning turmushdagi o'rni qat'iy ta'kidlangan. Jamiyat farovonligini harakatlantiruvchi kuch sifatida shaxsning yuksak darajada ulug'lanishi va baholanishi unga nisbatan diqqat-e'tibor doim e'tibor markazida. Psixologiya fanida iroda kategoriyasi kishilik jamiyati ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixologik taraqqiyotining har bir bosqichida muayyan darajada o'rganilgan. Hozirgi davrda mamlakatimizda barkamol avlod shakllanishiga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi tufayli mazkur muammo keng ko'lamda tadqiq qilinishi ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda shaxsdagi irodaviy faoliyatini o'rganishga diqqat markazida bo'lmoqda Iroda insonning o'z xatti-harakatlarini (xulq atvorini) o'zi boshqarishini, u yoki bu xususiyatli intilish va istaklarini boshqarishni talab qiladi. Irodaviy faoliyat mohiyati shunda ko'zga tashlanadiki, bunda shaxs o'zini o'zi boshqaradi, o'zini qo'lga oladi, o'zining xususiy ixtiyorsiz impulsiv tomonlarini nazorat etadi, hatto zarurat tug'ilsa u holda ularni tamoman yo'qotadi ham. Iroda insoning o'z xatti-harakatlarini o'zi boshqarishini, bir qator boshqa intilish va istaklarini tormozlanishini taqozo qiladi: iroda ongli ravishda qo'yilgan maqsadga muvofiq turli harakatlar qatorini tashkil qilishni ko'zda tutadi. Rivojlanayotgan mamlakatning taraqqiyotida o'sib kelayotgan yosh avlodning psixologik holati alohida ahamiyatli. Mavzuning ahamiyatli ekanligi haqida davlat rahbari shunday fikrni bildiradi. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich [1] "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli yashashi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" – deb ta'kidlaydi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ham bizning eng oliy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak ekanligini ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqqan holda aytilish mumkinki, biz o'rganayotgan mavzu dolzarb va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi zaruriy hodisadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologik adabiyotlar tahliliga ko'ra, F.N.Ganobolin o'z faoliyati davomida iroda hamda shaxsning irodaviy sifatlarini keng tahlil etadi. Unga ko'ra, irodani ikki guruhga bo'lib o'rganishni tadqiq etgan. Jumladan, R Assadjolining izlanishlarida irodaviy sifatlarini tasniflashga oid o'ziga xos yondashuvni ko'rish mumkin, Iroda Adler uchun hayotiy maqsadlarga intilish va erishishni anglatuvchi yana bir termindir. Shunday ma'nosi bilan u o'z nazariyasining markaziy qismidir, Erik Erikson mashhur ayol va erkaklarning psixologik biografiyasini yaratgan holda psixologik va ijtimoiy rivojlanishning o'zaro ta'sirini tahlil qilgan holda, bolalarni turli madaniyatlarda tarbiyalash metodlarini o'rganib, psixoanaliz

tushunchasining mazmunini kengaytirdi. Xorijiy psixologlardan M.S.Xagger va nemis psixiatri E. Krepelsh, A.Shopengauer alohida toifada tadqiq etishgan. Ingliz mutafakkiri J.Lokk erkin tanlash masalasini, iroda erkinligining umumiy muammosidan ajratishga harakat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxs shakllanishining asosiy mezonlaridan biri iroda bo'lgani uchun irodaviy sifatlar taraqqiyoti muammosi ko'pdan buyon jahon psixologlarining e'tiborini o'ziga jalb etadi. Hozirgi vaqtda yangi tendensiya yangi yo'nalishni ko'rsatmoqda. Ilmiy adabiyotlarda aniqlanishicha, o'smirlarning irodaviy sifatlarini tadqiq qilish psixologiya fanida so'nggi 10 yilliklarda e'tiborsiz qolib kelmoqda. Buning sabablari bir qancha bo'lib, asosiy, olimlarning turli xil ta'lim texnologiyalarini tadbiq qilishda ta'lim va o'zlashtirish zahiralarning psixologik jihatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlaridir. Irodaviy sifatning shaxs shakllanishidagi ta'siri va uning rivojlanishi kam o'rganilgan bo'lib, istisno tariqasida so'nggi yillarda irodaning umumiy muammolari va irodaviy boshqaruvga bag'ishlangan ishlarni sanab o'tish mumkin (A.G.Asmolov, A.V.Bikov, Yu.A.Vasileva, V.E.Drujinin, V.A.Ivannikov, E.P.Ilin, A.E.Pasnichenko, E.A.Purtova, A.I.Frolov, S.A.Shapkin, T.I.Shulga). F.N.Gonobolin irodaviy sifatlar muammosini tadqiq etar ekan, ularni ikki guruhga ajratadi [2]

–birinchi guruh sifatlariga -qat'iyatlilik, jasoratlilik, o'ziga ishon va mustaqillik kabilar kiradi;

–ikkinchi guruh sifatlariga - chidamlilik, bardoshlilik ixtiyoriylik, intizomlilik va tashkilotchilik va hokazo. Irodaviy sifatlarini tadqiq etishning psixologik masalalari, R.Assadjolining izlanishlarida ham aks etib, unda irodaviy sifatlarini tasniflashga oid o'ziga xos yondashuvni ko'rish mumkin. Muallifga ko'ra, irodaviy sifatning quyidagi turlari ajratiladi:

– energiyalilik - bu sifat maqsadga erishishdagi qiyinchilikni yengishda namoyon bo'ladi;

– mahorat, nazorat, intizom - bu sifat boshqa psixik funksiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni ta'minlaydi;

– konsratsiya - ta'sir sifati va vazifalar yoqimsiz bo'lganda, bu sifat alohida ahamiyatga ega sanaladi;

– qat'iyatlilik - tezkorlik - chaqqonlik qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi [3]

– qat'iyatlilik, chidamlilik va sabrlilik - ekstremal sharoitlarda o'zini namoyon etadi;

– tashabbuskorlik, jasoratlilik, qat'iylik va tavakkalchilikka moyillik [4]

– tashkilotchilik, integratsiyalashuv, sintez - iroda bu yerda muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan, vositalarni

birlashtirish vazifasini bajaradi va hokazo. Irodaviy sifatlar muammosini o'rganishda "loku nazorat" yondoshuvi ham tan olinib, ushbu g'oyaning muallifi Dj.Rotter hisoblanadi. Muallifning fikricha, inson o'z faoliyati natijalari tashqi va ichki omillardan qidiradi. Ya'ni inson erishgan yutuqlari va kamchiliklari sababini tashqi muhit sharoitlaridan qidiradigan bo'lsa, unda bunday insonlar faoliyat natijalarida mas'uliyatni o'z bo'yniga olishmaydi [5]. Agarda, inson barcha harakatlarining natijalarini ichki muhitdan ya'ni o'zidan qidirsam, unda bunday insonlar har qanday vaziyatda mas'uliyatni o'z bo'yniga oluvchi shaxslar hisoblanishadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, iroda shaxsning o'z faoliyati, xulq-atvori va muomalasini ongli boshqarishi bo'lib, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni amalga oshirishda uchraydigan tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengish uquvidir. Shuning uchun iroda shaxsning o'z xulqini boshqarish, o'z faolligini idora qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki turmushda to'siqlar vujudga kelsa, ularni bartaraf etishda ham bevosita ishtirok etadi. Iroda o'z mohiyatiga ko'ra, inson o'z mayllarini boshqarishga qobil bo'lsa, ularga shaxsiy munosabatini bildirsa, faqat shundagina vujudga kelishi mumkin. Irodaning mohiyati, vujudga kelishi, uning bajaradigan funksiyasi murakkabligi tufayli unga ta'rif berish ham shunchalik mushkul. Shaxs nafaqat sharoitga qarab, balki uning sharoitlariga zid ravishda ham rivojlanadi. Insonning atrofdagi voqelik bilan munosabati nafaqat uyg'un, balki ma'lum bir dizgarmoniyani ham o'z ichiga oladi. "Iroda" tushunchasi psixiatriya, psixologiya, fiziologiya va falsafa tomonidan qo'llaniladi. Shaxs darajasida esa, iroda, quvvat, matonat, chidamlilik kabi xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Ularni shaxsning birlamchi yoki asosiy, irodaviy sifatlarini deb hisoblash mumkin.

Iroda ayrim tadqiqotchilar tomonidan mustaqil psixik jarayon sifatida ham, boshqa bir tadqiqotchilar esa, psixik jarayonlar va hodisalarning jihati sifatida ham, shaxsning o'z xulq-atvorini o'z ixtiyori bilan nazorat qilishning o'ziga xos qobiliyati sifatida talqin etadilar. Iroda shaxs ongining elementi hisoblanib, u tug'ma sifat emas, balki shaxsni shakllanishi jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Kuchli irodali fazilatlarini rivojlantirish uchun inson o'zi uchun muhim bo'lgan maqsadlarni qo'yishi va ixtiyoriy harakatlarini ushbu maqsadlarga erishish yo'lidagi to'siqlarni yengishga yo'naltirishi kerak. Inson qanchalik ko'p to'siqlarni engib o'tsa, uning irodaviy sohasi shunchalik rivojlangan bo'ladi. Biroq, insonlarga qarshi qaratilgan travmatik hodisalar yoki harakatlar uning irodasini "buzishi" mumkin. Iroda mavjudligi tufayli inson o'zining individualligini, o'z xatti-harakati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyatini his qiladi va anglaydi. Iroda deyarli barcha asosiy aqliy funksiyalarni - hislar, idrok, tasavvur, xotira, fikrlash va nutqni tartibga solishda ishtirok etadi. Ushbu jarayonlarning eng pastidan eng yuqori darajagacha rivojlanishi inson tomonidan ular ustidan ixtiyoriy nazoratni qo'lga kiritilishini ko'rsatadi. Irodaning vazifasi inson xatti-harakatlarini nazorat qilish, normal hayotga to'siqlar mavjud bo'lgan hollarda uning faoliyatini ongli ravishda o'zini o'zi boshqarishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Sh.Mirziyoyev.Erkin va farovon, demokratik davlatni birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston.2016.14-bet
2. Гоноболин Ф.Н. Психология - М: Просвещение, вт. изд. Образование.2008. – С.66.
3. Шляпников В.Н. Понятие воли в рамках модели практической занятости человека // Вопр. психол. 2006. – №6. С. 147-154.
4. Иванников В.А. ВОЛЯ // Национальный психологический журнал. 2010. – №1. С. 97-102.
5. Rotter G. V. Generalized expectations for internal versus external control of reinforcement // Psychol. Monogr. (reprint) Kerch. 2009. – PP.276
6. Крутых А.В. Ответственность в студенческом возрасте // Международный студенческий научный вестник. – 2015. – № 5-2. ;
7. Ильин Е. П. Психология воли. 2-е изд. [Текст] / Е. П. Ильин. – СПб. : Питер, 2009. – С. 206.
8. Жан Пиаже: теория, эксперименты, дискуссии: учеб. пособие для студентов психол. спец. и направлений / Ж. Пиаже ; под ред. Л.Ф.Обуховой, Г.В. Бурменской. - М.: Гардарики, 2001. – С.59.
9. Глушко О. И. Концепция волевой активности ДН Узнадзе и современные подходы к изучению субъектной активности //Вісник Харківського національного університету імені ВН Каразіна. Серія: Психологія. – 2011. – № 47. – С. 53-56.
10. Бородина Н.В. Особенности социологического портрета студента, обучающегося по наиболее востребованным и перспективным специальностям среднего профессионального образования / Н.В. Бородина, А.Р. Симонян, И.И.

Украинцева // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. - 2017. - № 4(208). - С. 40-49

11. Гаврилина И.В. Факторы влияния на оценки степени развития волевых качеств личности // Автореф. дис. канд. психол. наук. М.: Московский государственный университет им. М.В. Ломоносова. 2010. С. 8.
12. Ильин Е. П. И46 Психология воли. 2-е изд. - СПб.: Питер, 2009. - 368 с.: ил. - (Серия «Мастера психологии»). 201 б
13. Касаткина Д.А. Эмпирическое исследование волевых качеств и направленности личности // Акмеология. 2012. № 4 (44). – С.82-86.
14. Маторин Д. О. Формирование волевых качеств у подростков средствами физической культуры. Дис. на соиск. уч. ст. канд. пед. н. Саратовский национальный исследовательский государственный университет им. Н.Г. Чернышевского. Саратов, 2017. – С.83
15. Пасниченко А.Э. Оценка индивидуально-возрастных особенностей развития волевых качеств личности. М., «Наука» 2006.– С.134.
16. Селиванов, В.И. Проблемы психологии воли / В.И. Селиванов. – Рязань: 2 - Изд. Наука . 2013 – С.85.
17. Черенева Е. А. Проблема воли и произвольности в психологии // Вестник Бурятского государственного университета. Образование. Личность. Общество. – 2011. – №. 5. – С. 39-43.
18. Иванников В.А., Шляпников В.И. Воля как продукт общественно-исторического развития человечества // Психологический журнал. 2012. Т. 33. №3. – С.111-121.
19. Пасниченко А.Э. Оценка индивидуально-возрастных особенностей развития волевых качеств личности. М., «Наука» 2006.– С.134.